


## Korxonalar va tashkilotlar

(2018 yil yanvar-noyabr)

2018 yilning yanvar-noyabr oyida Samarqand viloyatida 4451 taga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1266 taga ko'pdir.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 3609 ta (17,1 %) ga o'sgan hamda ularning umumiyligi soni 24782 tani tashkil etgan.


### Korxona va tashkilotlar yillar kesimida soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Viloyatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z ornida tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, xayotga tadbiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), birlikda**




**Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning  
Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 dekabr holatiga)**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,1 % savdoda, 18,6 % sanoatda, 7,7 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 8,7 % qurilishda, 6,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,3 % tashish va saqlash, 2,2 % sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,6 % axborot va aloqa va 29,3 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar kesimida soni, o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) birlikda




**Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi**

	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	2018-yil 1 dekabr holatiga	
			Ro'yxatdan o'tgan, %	Faoliyat ko'rsatayotgan, %
<b>Samarqand viloyatida</b>	<b>26018</b>	<b>24782</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
Samarqand sh	8197	7773	31,5	31,4
Kattaqo'rg'on sh	940	924	3,6	3,7
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo	1025	966	3,9	3,9
Bulung'ur	968	904	3,7	3,6
Jomboy	867	837	3,3	3,4
Ishtixon	1323	1258	5,1	5,1
Kattaqo'rg'on	1198	1157	4,6	4,7
Qo'shrabot	577	560	2,2	2,3
Narpay	925	897	3,6	3,6
Payariq	1438	1352	5,5	5,5
Pastdarg'om	2092	1920	8,0	7,7
Paxtachi	659	629	2,5	2,5
Samarqand	1778	1692	6,8	6,8
Nurobod	711	666	2,7	2,7
Urgut	2291	2258	8,8	9,1
Tayloq	1029	989	4,0	4,0

2018 yil yanvar-noyabr holatiga 4451 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan 39,7 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Samarqand shahrida (1307 ta), Pastdarg'om (348 ta), Urgut (342 ta) va Samarqand (341 ta) tumanlarida

tashkil etilgan. Eng kam Paxtachi (88 ta), Qo'shrabot (97 ta) hamda Narpay (101 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda




Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi sanoatda (993 ta), savdoda (848 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (583 ta), va qurilishda (502 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (75 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (109 ta) hamda tashish va saqlashda (132 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

	2016 yil 1 dekabr holatiga			2017 yil 1 dekabr holatiga			2018 yil 1 dekabr holatiga		
	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiyl soniga nisbatan, %	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiyl soniga nisbatan, %	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiyl soniga nisbatan, %
Sanoat	425	96,8	19,1	855	201,2	26,8	993	116,1	22,3
Savdo	584	89,9	26,3	627	107,4	19,7	842	166,5	18,9
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	190	190,6	8,5	433	227,8	13,6	583	134,6	13,1
Qurilish	244	121,4	11,0	317	129,9	9,9	502	158,4	11,3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	218	117,2	9,8	355	162,8	11,1	438	123,4	9,8
Tashish va saqlash	98	166,1	4,4	107	109,2	3,4	132	134,3	3,0
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	46	143,7	2,1	91	197,8	2,8	109	119,8	2,4
Axborot va aloqa	58	111,5	2,6	78	134,5	2,4	75	96,1	1,7
Boshqa turlari	360	140,1	16,2	322	89,4	10,1	771	239,4	17,3


**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**



**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiyligi**  
 (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 dekabr holatiga 19496 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 4844 ta, oilaviy korxonalar – 2406 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 11725 ta va boshqalar 1719 tani tashkil etadi.


**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**




**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni**

2018 yil 1 dekabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 391 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 111 taga yoki 28,4 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 290 tasi qo'shma korxonalar, 101 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar davomida o'sishi, birlikda**



Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Samarqand shahar 200 ta (51,1 %), Urgut 40 ta (10,2 %) va Jomboy tumanlari 32 ta (8,2 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Qo'shrabot 1 ta (0,5 %), Kattaqo'rg'on va Narpay 4 ta (1,0 %), Paxtachi 5 ta (1.3 %), Ishtixon va Payariq 6 ta (1,5 %) tumanlar hissalariga to'g'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 dekabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 244 ta (62,4 %), savdo 53 ta (13,5 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 30 ta (7,7 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 23 ta (5,9 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa qurilish 16 ta (4,1 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 11 ta (2,8 %) tashish va saqlashda va 7 ta (1,8 %) sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar 4 ta (1.0 %) va tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat, savdo

va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa, axborot va aloqada 3 ta (0,8 %) faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (birlikda)



2018 yilning yanvar-noyabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 116 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 65 taga ko'paygan.

Bunda, Turkiya Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 24 ta, Rossiya Federatsiyasi – 14 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 9 ta, Islom Respublikasi Qozog'iston Respublikasi - 4 ta, Iraq Respublikasi - 4 ta, Birlashgan Arab Amirligi - 6 ta, Turkmaniston Respublikasi – 1 ta, Eron Islom Respublikasi - 3 ta, Amerika Qo'shma Shtatlarida — 4 ta, Janubiy Koreya Respublikasi -15 ta, Saudiya Arabistoni Qirolligi –1 ta va Pokiston Islom Respublikasidan – 2 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-noyabr holatiga) birlikda**




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 47 ta, savdoda 26 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 16 ta, qurilish va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 5 ta va boshqa faoliyat turlarida 7 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, o'sish dinamikasi**

	2017 yil yanvar-noyabr			2018 yil yanvar-noyabr		
	Jami	O'tgan yilga nisbatan %	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	O'tgan yilga nisbatan %	Umumiy soniga nisbatan %
<b>Sanoat</b>	36	257,1	70,6	47	130,5	40,5
<b>Savdo</b>	4	133,3	7,8	26	650,0	22,4
<b>Qurilish</b>	2	200,0	3,9	13	650,0	11,2
<b>Qishloq o'rmon va baliq xo'jaligi</b>	5		9,8	16	320,0	13,8
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	1		2,0	5	500,0	4,3
<b>Tashish va saqlash</b>				1		0,9
<b>Axborot va aloqa</b>				1		0,9
<b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy Boshqa turlari</b>	3		5,9	7	233,3	6,0


### Kichik korxona va mikrofirmalar soni

2018 yil 1 dekabr holatiga Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 19375 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 dekabr holatiga qaraganda 20,6 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 6514 tasi (33,6 %), Samarqand shahriga, 1812 tasi (9,4 %) Urgut, 1448 tasi (7,5 %) Pastdarg'om hamda 1417 tasi (7,3 %) Samarqand tumanlari hissalariga to'gri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 19375 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 5447 tasi (28,1 %) – savdoda, 4585 tasi (23,7 %) - sanoatda, 2143 tasi (11,1 %) - qurilishda, 1857 tasi (9,6 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1579 tasi (8,2 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 788 tasi (4,1 %) - tashish va saqlashda, 395 tasi (2,0 %) - axborot va aloqa sohasida, 452 tasi (2,3 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 2129 tasi (11,0 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinish turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va sanoat faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


### **Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



2018 yil yanvar-noyabr holatiga 3967 dan oshiq kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 29,2 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Samarqand shahrida (1209 ta), Samarqand (323 ta), Urgut (299 ta) va Payariq tumanlarida (256 ta) tashkil etilgan. Eng kam Nurobod (105 ta), Paxtachi (70 ta) hamda Qo'shrabot (84 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (993 ta) savdoda (848 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (581 ta) qurilishda (502 ta) va yashash va ovqatlanish (436 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (75 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (108 ta) hamda tashish va saqlashda (131 ta) tashkil etilgan.



#### **Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni**



### Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 dekabr holatiga 2502 tani tashkil etib, ulardan 2406 tasi yoki 96,2 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'ssatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 64,1 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 34,2 % yoki 822 tasi sanoat, 27,2 % yoki 655 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 17,5 % yoki 422 tasi savdo, 9,6 % yoki 231 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,5 % yoki 37 tasi axborot va aloqa, 1,1 % yoki 27 tasi qurilish, 1,0 % yoki 23 tasi tashish va saqlash va 0,5 % yoki 11 tasi sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish hamda 7,4 % yoki 178 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

**Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalar ni  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



**Samarqand viloyati statistika  
boshqarmasi  
Statistik registrarlarni yuritish bo`limi**

**Tel.:71-230-85-42 (43)**